MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KREATIV-KONSTRUKTIV FAOLIYAT ASOSIDA KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIGINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНОЙ ГИБКОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКИХ КОНСТРУКТИВНЫХ ЗАНЯТИЙ

DEVELOPING COGNITIVE FLEXIBILITY IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH CREATIVE CONSTRUCTIVE ACTIVITY

Xakimova Nafosat Solijon qizi
Namangan Davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

Annototsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kognitiv moslashuvchanlik bolaning o‘zgaruvchan vaziyat va faoliyat sharoitlariga moslashishi, mavjud bilim va tajribasini yangi sharoitda qayta tashkil etishi, faoliyat strategiyasini o‘zgartirishi hamda muqobil yechimlarni izlab topish qobiliyatini ifodalovchi muhim psixologik hodisa sifatida talqin etiladi.
Kalit so’zlar maktabgacha yosh, kognitiv moslashuvchanlik, pedagogik-psixologik omillar, ijro funksiyalari, kognitiv rivojlanish, diqqat.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируются педагогические и психологические факторы, влияющие на формирование когнитивной гибкости у детей дошкольного возраста. Когнитивная гибкость рассматривается как важный психологический феномен, отражающий способность ребенка адаптироваться к изменяющимся ситуациям и условиям деятельности, реорганизовывать имеющиеся знания и опыт в новых условиях, изменять стратегию деятельности и находить альтернативные решения.

Ключевые слова: дошкольный возраст, когнитивная гибкость, педагогические и психологические факторы, исполнительные функции, когнитивное развитие, внимание

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the pedagogical and

psychological factors influencing the development of cognitive flexibility in preschool children. Cognitive flexibility is interpreted as a crucial psychological phenomenon representing a child's ability to adapt to changing situations and activity conditions, reorganize existing knowledge and experience in new contexts, modify activity strategies, and seek alternative solutions.

Keywords: preschool age, cognitive flexibility, pedagogical-psychological factors, executive functions, cognitive development, attention.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikning shakllanishi bolaning bilish jarayonlari, mustaqil fikrlashi va o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini belgilovchi muhim psixologik-pedagogik jarayonlardan biridir. Tadqiqot natijalarini nazariy tahlil qilish asosida kognitiv moslashuvchanlik diqqatni ko‘chirish, ishchi xotira, inhibitiv nazorat, kognitiv almashtirish, muammolarni turli usullar orqali hal qilish va yangi vaziyatlarga moslashish kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar majmuasidan tashkil topishi aniqlandi. Ilmiy adabiyotlarda kognitiv moslashuvchanlikka yagona yondashuv shakllanmagan. Bir guruh tadqiqotchilar uni ijro funksiyalarining tarkibiy qismi, ikkinchi guruh vakillari muammoni hal qilish sifati, boshqalari esa bilim tuzilmasini yangi vaziyatga ko‘chirish mexanizmi sifatida izohlaydi. Bunday farqlanish tushunchaning turli faoliyat sohalarida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Kognitiv moslashuvchanlik diqqat obyektini o‘zgartirish, qoidalar o‘rtasida almashinish, bir obyektni turli belgilariga ko‘ra tasniflash, bir nechta yechimni ilgari surish va faoliyat natijasiga qarab dastlabki rejani yangilash jarayonlarini qamrab oladi. Demak, u alohida bitta aqliy operatsiyadan emas, vaziyatni qayta anglash va faoliyatni qayta tashkil etishga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘langan operatsiyalar majmuasidan iborat. Ijodiy faoliyat bolalarning his-tuyg‘ularini rivojlantiradi, xotira, fikrlash kabi yuqori aqliy funksiyalarning yanada maqbul va intensiv rivojlanishiga hissa qo‘shadi. O‘z navbatida, bu bola o‘qishidagi muvaffaqiyatni belgilaydi. Ijodiy faoliyat bolaning shaxsiyatini rivojlantiradi, unga axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Ijodiy asar yaratish jarayonida bola o‘zining hayotiy qadriyatlari va shaxsiy fazilatlari haqida tushunchasini aks etti-radi. Odatda, farzandlar ota-onalari bilan bir xil kasbni tanlaydi, chunki ota-ona bolani ko‘proq o‘zi faoliyat yuritayotgan yoki yaxshi

biladigan kasblar bilan bevosita va bilvosita tanishtirib boradi Maktabgacha yoshda kognitiv moslashuvchanlikning shakllanishi o‘ziga xos rivojlanish dinamikasiga ega. Uch-to‘rt yoshli bolalarda diqqatning obyektning yorqin yoki odatiy belgisiga bog‘lanib qolishi ko‘proq kuzatiladi. Bola bir marta qabul qilingan qoidani yangi shart taqdim etilganidan keyin ham davom ettirishi mumkin. Besh-olti yoshga kelib nutqiy rejalashtirish, ixtiyoriy diqqat va harakatlarni nazorat qilish imkoniyatlari kengayadi; natijada bola qoidalarni taqqoslash, vazifa shartini eslab qolish va faoliyat usulini ongli ravishda almashtirishga o‘ta boshlaydi. Ushbu rivojlanish o‘z-o‘zidan bir tekis kechmaydi. Topshiriqning murakkabligi, pedagogik ko‘mak, bolaning avvalgi tajribasi, motivatsiyasi va faoliyat materiali natijaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kognitiv moslashuvchanlik bolaning yangi axborotni qabul qilishi, mavjud bilim va tasavvurlarini o‘zgargan sharoitga moslashtirishi, bir faoliyat usulidan boshqasiga o‘tishi hamda muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish qobiliyatini ifodalaydi. Maktabgacha yosh davrida ushbu qobiliyatning shakllanishi o‘yin, tajriba, modellashtirish va kreativ-konstruktiv faoliyat bilan chambarchas bog‘liq.

Kreativ-konstruktiv faoliyatda bola rejalashtirish, tanlash, taqqoslash, sinab ko‘rish, xatoni aniqlash va qayta qurish kabi kognitiv operatsiyalarni bajaradi. Masalan, konstruktor yordamida uy qurishda dastlabki reja kutilgan natijani bermasa, bola boshqa material yoki qurish usulini tanlaydi. Bu jarayon kognitiv strategiyani o‘zgartirish va yangi sharoitga moslashish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Kognitiv moslashuvchanlikni samarali rivojlantirish uchun tarbiyachi:

1. ochiq yakunli topshiriqlar berishi;
2. bitta masalaning bir nechta yechimini izlashga undashi;
3. bolaga xato qilish va uni qayta tuzatish imkonini berishi;
4. “Buni yana qanday qilish mumkin?”, “Agar shunday qilsak nima bo‘ladi?” kabi muammoli savollardan foydalanishi;
5. turli material va konstruktiv vositalarni mustaqil tanlash imkonini yaratishi;
6. individual va guruhli ijodiy faoliyatni uyg‘unlashtirishi;
7. bolaning tayyor namunani aynan takrorlashidan ko‘ra, o‘z g‘oyasini yaratishini rag‘batlantirishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv moslashuvchanlikni ijodiy o‘yin texnologiyalari vositasida rivojlantirish eng samarali usullaridan biridir. Kvestlar, stol o‘yinlari, mantiqiy masalalarni va boshqotirmalarni yechish, ta’limni real hayotiy vaziyatlar bilan muvofiqlashtirishga asoslangan o‘yinlar miya faoliyatini faollashtiradi va tanqidiy fikrlash, diqqat va xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalari ham bolalardagi kreativlikni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko’nikmasini hosil qiladi. Interaktiv multimedia materiallari (video darslar, animatsiyalar, 3D modellar, virtual laboratoriyalar, bolalar uchun animatsion filmlar) axborotni chuqurroq idrok etishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ta'sirini quyidagi jihatlarda namoyon bo’ladi:

1. Muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash. Ijodiy o‘yinlar bolaga har xil vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal qilishga o‘rgatadi. Masalan, qurilish o‘yinlari yoki konstruktiv o‘yinlar bolaga narsalar qanday birikishi, qanday o‘zgarishi va qanday natijalarga olib kelishi haqida o‘ylash imkonini beradi. Bu esa mantiqiy fikrlash va strategik rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Xayoliy fikrlash. Ijodiy o‘yinlar bolalarga o‘z dunyosini yaratish imkonini beradi. O‘yinlarda turli rollarda o‘ynash, o‘yin qahramonlarini yaratish, dunyo va muhitni tashkil etish kabi faoliyatlar xayoliy fikrlashni rivojlantiradi. Xayoliy o‘yinlar bolalar uchun o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalash va yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish imkoniyatlarini yaratadi.

2. Xayoliy fikrlash. Ijodiy o‘yinlarda bolalar turli hikoyalar yaratib, o‘zaro muloqot qilishadi. Bu, o‘z navbatida, nutq va til ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinlar davomida bolalar yangi so‘zlar, jumlalar va ifodalar bilan tanishadilar, o‘zlarini yanada ravon va aniq ifodalashni o‘rganadilar.

4. Emotsional rivojlanish. Ijodiy o‘yinlar bolalarga turli emosiyalarni boshdan kechirish, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqalar bilan empatiya o‘rnatish imkonini beradi. Masalan, rol o‘ynash o‘yinlari bolalar uchun turli vaziyatlarda qanday his qilishni va boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rganishga yordam beradi.

5. Ijtimoiy ko‘nikmalar. Bolalar ijodiy o‘yinlarda ko‘pincha guruhlarda birga

o‘ynaydilar. Bu ular uchun jamoada ishlash, boshqalar bilan hamkorlik qilish, qoidalarga rioya qilish va bir-biriga yordam berish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganish uchun ajoyib imkoniyatdir.

6. Diqqat va xotira rivoji. Ijodiy o‘yinlar diqqatni jamlash va xotirani mustahkamlashga yordam beradi. O‘yin davomida bolalar yangi ma'lumotlar qabul qiladilar, voqealarni eslab qoladilar va o‘yin shartlariga mos ravishda reaksiya beradilar. Bu esa ularning xotira va diqqatni rivojlantirishiga yordam beradi.

7. Ijodkorlik va muvozanatni toppish. Ijodiy o‘yinlar bolalar uchun muvaffaqiyatli ijodkorlikni namoyish qilish va o‘z potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratadi. Bu ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi va ijodiy yondashuvni takomillashtiradi.

Xulosa. Kreativ-konstruktiv faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarda **kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri** hisoblanadi. Bunday faoliyat jarayonida bola turli materiallar, shakllar va usullardan foydalanib, muammoni bir necha yo‘l bilan hal qilishni, vaziyat o‘zgarganda qarorini qayta ko‘rib chiqishni va yangi yechim topishni o‘rganadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati

1.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019.13- maydagi 391- sonli “Maktabgacha ta’lim tashkilotilari faoliyati yanada takomillashtrish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarori www.lex.uz

2.Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 192 p.

3.Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Национальное образование, 2019. – 368 с.

4.Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika: darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 688 b.

5.Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – 288 b.

6.Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi: darslik. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 432 b.

7.Запорожец А.В. Психология восприятия сказки ребенком дошкольником // Дошкольное воспитание. 1948. 3. Пиаже Ж., Речь и мышление ребенка: научно-популярное издание 2008

8.Djamilova, N. (2022). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF LIFE STRATEGIES IN STUDENTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 187-191.

9.Xakimova.N.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini bilish kompotensiyasi vositasida rivojlantrish. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali 2025-yil, mart, N-3-son